

**ALIFBE-BOSHLANG‘ICH TA’LIM ASOSI**

*Qolandarova Dilafroz Karimovna  
Urganch Davlat Pedagogika Instituti  
“Boshlang‘ich talim metodikasi”  
kafedrasi o‘qituvchisi  
Urganch davlat pedagogika instituti  
“Boshlang‘ich ta’lim “yo ‘nalishi talabasi  
Egamberdiyeva Bonu Karimboy qizi*

**Annotatsiya**-Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish davrida “Alifbe”darsligidan foydalanish, o‘qitish bilim va ko‘nikmalari ,alifbo yaralish tarixi va darslikni yaratishga qo‘yiladigan talablar, savod o‘rgatishning asosiy vazifalari yoritilgan

**Kalit so‘zlar**-savod o‘rgatish,ifodali o‘qish,alifbo, unli ,undosh,bo‘g‘in gap ,tovush, alifbo ,imlo

**Аннотация** - В данной статье описано использование учебника «Алифбе» при обучении грамоте в начальных классах, преподавание знаний и умений, история создания алфавита и требования к созданию учебника, основные задачи обучения грамоте.

**Ключевые слова** - обучение грамоте, выразительное чтение, алфавит, гласная, согласная, слог, звук, алфавит, правописание.

**Annotation**-This article describes the use of the "Alifbe" textbook during literacy training in primary grades, teaching knowledge and skills, the history of the creation of the alphabet and the requirements for creating a textbook, the main tasks of literacy training.

**Key words** - teaching literacy, expressive reading, alphabet, vowel, consonant, syllable, sound, alphabet, spelling

O‘tgan asrning boshlarida Vatan ozodligi,xalqning ma’rifati ,millat taraqqiyoti uchun kurashgan ma’rifatparvar ziyorilarimiz yangi mакtablar ochish,xayriya jamiyatlari tuzish,kitoblar chiqarish,bir so‘z bilan aytganda,xalqni ma’rifatli qilishga intilishgan edi.Ular tomonidan 1901-yili Qo‘qon va Toshkentda,1903-yili Samarqandda yangi maktablar ochilgan.Albatta,bu maktablar uchun darsliklar kitoblar zarur bo‘lgan.Maktab muallimlari alifbo kitoblari,darsliklar yozib,o‘z hisobidan chop etishgan. 1917-yilgacha 10dan ortiq alifbo kitobi nashr etilgan.

Manbalarda qayd etilishicha, 1900-yili toshkentlik Sayyidrasulxo‘janing “Ustodi avval”risolasi yurtimizdagи mahalliy ziyoliylar tomonidan yozib, chop etilgan dastlabki alifbodir.

Abdulla Avloniyning ” Birinchi muallim” nomli alifbosi ham o‘z davrida ko‘plab maktablarda keng qo‘llanilgan darsliklardan biri edi.Alifbo 1812-yilda yozilgan bo‘lib,Toshkentda “Maktab” kutubxonasining xarji bilan bosilgan va 4-5 marta qayta nashr qilingan.Professor Begali Qosimov ushbu kitob haqida shunday ma’lumot beradi:Muallif kitobida oddiydan murakkabga borish prinsipiga qat’iy amal qiladi,uni tadrijiy sur’atda tartib etadi.Darslar harflar alifbosi tartibida keltiriladi.So‘ng navbat bilan qaysi o‘rinda qanday yozilishi va ularga oid ixcham ,soda misollar beriladi”.

Bu alifbo kitoblarining saviyasi har xil bo‘lishiga qaramay ,ularda berilgan ilg‘or fikrlar bolalarни ma’rifatga yo‘naltirishga katta hizmat qilagn.

Til fikrni shakillantirish va bayon qilish ,taassurot his-kechinmalni ifodalashda muhim o‘rin tutadi.Bu vosita qanchalik takomillashsa,fikr shunchalik aniq,ta’sirchan ifodalanadi.Maktabda ona tilini chuqur o’rganish zarurati tilning bajaradigan asosiy vazifalardan kelib chiqadi.Alifbe davrida darslikdagi yangi so‘zlar, matn, kichik hikoya va she’rlardan foydalanib,o‘quvchilarni so‘z ma‘nosi bilan atroficha tanishtirishda,she’riy matinlarni yodlatish ,nazariy matinlarni qayta hokoyalatish nazarda tutilgan.Savod o‘rgatish darslari tildan dastlabki tushunchalarning asoslarini “Sinfda o‘qish “,”Sinfdan tashqari o‘qish “O‘qish darslri “,”O‘qish ko‘nikmakari “bo‘limlarini o‘z ichiga oladi.

Alifbe – dastlabki savod beradigan o‘quv qo‘llanma.Alifbe bosma,yozma harflar va ular ifodalaydigan nutq tovushlari ,ularning yozilishni o‘zlashtirish sodda bo‘g‘in va so‘zlarni qo‘shib o‘qishga o‘rganish va o‘qilayotgan narsani to‘g‘ri tushunish hamda soda so‘z va gaplarni yozishda o‘rganishga yordam beradi.

Alifbo davri – bu davr 31-dekabrgacha davom etib, unda o‘quvchilar alifbodagi barcha unli va undosh tovush va harflar bilan tanishtiriladi.O‘quvchilarning tovush va harflarni yaxshi tanishlari ,elementlar o‘qishni muvaffaqiyatliligi egallashlari uchun bo‘g‘inga bo‘lish ,bo‘g‘in chegarasini aniqlash ,bo‘g‘indan tovushni ajratish ,tovush va harf munosabatini aniqlash ,kesma harflardan bo‘g‘in tuzish va o‘qish ,bo‘g‘in-tovush,tovush-harf tahlili kabi mashqlardan foydalaniladi.

Shuni ta’kidlash kerakki,savod o‘rgatish davrida bola harflarni yozishdan oldin uni qanday shakllantirishni ko‘z oldiga keltirib ,fikrlab oladi,ba’zan harf shaklini havoda “chizadi “,harf namunasini ko‘chiradi,tarkibini tahlil qiladi,uni qanday yozishni o‘zicha sekin gapiradi.O‘qituvchi o‘quvchi yoniga sekin o‘tirib ,ruchkani to‘g‘ri ushlatadi va uning qo‘li bilan harfni qanday yozishni ko‘rsatadi yoki o‘zi yozib tushuntiradi.Bundan tashqari ,bola yozuvning texnik tomoniga katta jismoniy kuch sarflaydi.Savod o‘rgatish oxirida bola bir darsda 20 tacha so‘zni yozishi mumkin.Savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarda o‘z- o‘zini tekshirishga oid malaka shakillantirladi:ular yozganlarini namuna bilan solishtiradilar ,yo‘l qo‘ygan xatolarini topadilar ,ularni izohlashga o‘rganadilar.Shu davrdanoq ko‘chirib yozish ,diktant va ijodiy yozuv (insho)lardan foydalaniladi.

Alifbe davrida o'qishga o'rgatish tahlil-tarkib tovush usulida amalga oshiriladi. Alifbe davri o'qishga o'rgatish unli va undosh tovushlar ,ularning talaffuziga xos farqlanish haqida ma'lumot berish, harf va tuvush munosabatiga oid tushunchalar bilan o'quvchilarni tanishtirish ,kesma harf va bo'g'inlar asosida so'z hosil qilish tuzilgan so'zlarni to'g'ri o'qish ,so'zlarni avval bo'g'inlab ,so'ngra bo'g'inlab ravon o'qishga o'rgatish ,tinish belgilariga roiya qilib ,ifodali o'qishga o'rgatish,o'qish jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan gigiyena qoidalariga roiya qilishga o'rgatish orqali amalga oshiriladi.

Ma'lumki savod o'rgatish jarayondagi alifbe darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harflarni tanishtirish, ularning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri ,ongli ifodali o'qish ko'nikmalarini shakillantirishdan iborat . Shuningdek,o'quvchilar lug'atini boyitish ,bog'lanishli nutqni o'stirish bilimini boyitish,mantiqiy tafakkurini shakillantirish ,eshitish ,qabul qilish sezgisini o'stirishda ham bu davr mas'uliyatliligi bilan alohida o'rin tutadi.

Savod o'rgatish tayyorlov davri o'qishga o'rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda o'zgalar nutqini eshitish ,diqqatni toplash,til birliklarini (tovush,bo'g'in,so'z,gap) farqlash ,ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakillantiriladi. Bular o'quvchilarning o'qishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. H.Saidov "Boshlang'ich ta'lim" ilmiy-metodik,axloqiy-ta'limiy, ommabop jurnali .T 8-son (2016-yil avgust) 29-bet
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ilmiy – metodik jurnali.T. 1-son (2016) 11-12 betlar
3. S.Matchonov,H.bakiyeva,X.Gulyomova va b. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi".- T:Ishonchli hamkor.2021.
4. X.Gulyomova ."Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi" \_T:Xalq ta'limi .2021 2-son